

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Ruziyev Xurshid Abdualimovich,*  
*Nukus innovatsion instituti v.v.b.dotsenti*  
*e-mail: [ruziyev1986@icloud.com](mailto:ruziyev1986@icloud.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarning kommunikativ kompetenligini rivojlantirishning funktsional modeli, shuningdek kommunikativ kompetentlik tushunchasi talqin qilingan.

**Tayanch tushunchalar:** ta'lim, kompetensiya, kommunikativ, kommunikativ kompetensiya, kompetentlik, yondashuv, funktional, model, rivojlantirish, kasbiy ko'nikma, akademik bilim, muloqot, qobiliyat, pedagogik shart-sharoit, ta'lim texnologiyasi, ko'nikma, shakllantirish, faoliyat sub'ekti

Zamonaviy hayotni bugungi kunda ilm-fan, ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirishni muhim vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Hech kimga sir emaski, zamonaviy oliy ta'limning vazifalaridan biri oliy ta'lim bitiruvchilarining raqobatbardoshligi va ijtimoiy harakatchanligini oshirishdan iborat. Bugungi kunda bunday talabalarning jamiyatda o'z o'rinaliga ega bo'lishlari uchun fanning muayyan sohalari bo'yicha akademik bilimlar yetarli emas. O'z kasbiy faoliyida yutuqqa erishishlari uchun malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim. Buni biz kommunikativ kompetentlik tushunchasi bilan izohlaymiz. Kommunikativ - fransuzcha (commune) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosи birgalikda muloqot qilish yoki muloqotda birlashish degan ma`noni anglatadi.

Kompetensiya- lotincha competere so'zidan olingan bo'lib, layoqatli, munosib bo'lmoq ma'nosini anglatadi, ya'ni shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini bildiradi. Ya'ni kompetensiya shaxsga malaka ko'rsatish imkoniyatini beradigan bilim, ko'nikma, tajriba.

Kommunikativ kompetentsiyasining turli jihatlari ko'plab mutaxassislarining ilmiy qiziqishishlari doirasini ifodalaydi: I. R. Altunina, V. V. Bogdanov, V. I. Kashnitskiy, G. A. Kudryavtseva, A. V. Molozhavchenko, Yu. V. Mryakina, E. V. Prozorova, I. I. Seregina va boshqalar.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Kommunikativ kompetentsiyasini, avvalambor, hodisa sifatida, so‘ngra pedagogik kategoriya sifatida bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish kommunikativ kompetentsiyaning nazariy modelini va integratsiyalashgan shaxsni shakllantirish tizimini yaratishga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetentlilik “tug‘ma qobiliyat bo‘lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallah jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir.

Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o‘zgartirish exanizmini o‘z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zgarishning asosida muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi rolli muloqotlarning o‘zgarishi yotadi”Kommunikativ kompetentlilik pedagog tomonidan tanlangan kommunikatsiya uslubida va muloqotdagi rolli o‘rinlarda o‘z ifodasini topishi mumkin, ular yetakchilik qiluvchi o‘zaro ta’sir qilish maqsadlari bilan ta’minlanib, barqaror ekspressiv xususiyatlar, shu bilan bir qatorda,muloqot vaziyati jarayonidagi kommunikativ harakatlar bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ kompetentlilikning mohiyati va tuzilishini sinchkovlik bilan o‘rganish bizga ikkita, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqada bo‘lgan darajalarni ajratish imkonini berdi:

birinchi daraja bevosita muloqotning o‘zida kommunikativ kompetentlilikning namoyon bo‘lishini belgilab beradi, ya’ni insonning kommunikativ xulq-atvorida;

ikkinchisi, o‘qituvchi kasbiy motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘naltirilishi, uning muloqotga alohida ehtiyoji orqali pedagogik-kommunikativ qadriyatlarni kiritishi kerak.

Til ta`limining maqsadi chet tilining kommunikativ kompetetsiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bu jarayon talabalarning lingvistik va nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Lingvistik kompetentsiya nima? Lingvistik kompetentsiya-tilning tizimi va tuzilishi, shuningdek, matn tahlilida qo‘llaniladigan leksik vositalar va sintaktik konstruksiyalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishdir. Nutqiy kompetentsiya – taklif qilingan til vositalaridan, adabiy materialdan o‘z fikrini yaratish uchun foydalanish qobiliyati hisoblanadi. Biz bilamizki, xorijiy tillarni o‘rganishda matning roli muhimdir Matnlarni o‘qitish jarayonida lingvistik, nutqiy va madaniy-adabiy kompetetsiyalar rivojlanadi. Xorijiy tildagi matnni o‘zlashtirishda talabalar har doim qiyinchilikka duch kelishadi. Bu qiyinchiliklarni aniqlab matndan oldingi va keyingi mashq va topshiriqlar tuziladi. Topshiriqlarni tanlashda grammatik mazmuniga, matn mazmuniga va talabaning malaka va ko‘nikmasini shakllanishi mosligiga ham e`tibor qaratiladi

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Talaba tomonidan idrok etilgan bilim har doim ongli yoki ongsiz ravishda o‘zlashtiradi. Chet tilini o‘rgatishda bilimlarni shakllantirishning maqsadli jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa vaqt va mehnatni talab etadi. Kommunikativ kompetentsianing bilim komponentini shakllantirish uchun mavzular xilma-xilligiga ham ahamiyat berib boriladi.

Bilimlarni taqdim etish uchun guruh bilim darajasidan kelib chiqib, taqdim etilgan obyektlar ixchamlashtiriladi. Yangi bilimlar ilgari olingan bilimlar bilan uzviy bog`lanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning funktional modeli tushunchasi shaxs bilimi va tajribasini aks ettiruvchi birlik. Talabalar chet tilini maxsus tashkil etilgan sharoitda o‘zlashtirsa, bilimalrni egallab tez va oson muloqotga kirishadi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini farqlashda A.V.Xutorskiyning fikri diqqatga sazovor. “Kompetensiya”–predmet va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o‘zaro bog’liq bo‘lgan sifatlari (bilimlar, qobiliyatlar, malaka va ko‘nikmalar, faoliyat usullari) majmuasi bo‘lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta’sir ko‘rsatish emakdir. Kompetentlilik–kishi tomonidan mos kompetensiyaga ega bo‘lishni anglatib, o‘z ichiga shaxsning unga va faoliyat predmetiga nisbatan muloqotini ham qamrab oladi. Ko‘rinadiki, “kompetentlilik” psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda professional faoliyatning ma’lum turlari bilan bog’liq sifatlargaega bo‘lishni bildiradi. S.I.Ojegovning izohli lug‘atida “xabardorlik, bilganlik, biror sohada obro‘-e’tibor qozonish”ni anglatadi. Shuningdek, L.Xell va D.Zigler kompetentlilikka “psixosotsiologik sifat bo‘lib, kuch va ishonchni bildiruvchi, o‘z ishining muvaffaqiyatli va foydali ekanligidan kelib chiqqan tuyg‘u bo‘lib, insonga uning atrofidagilari bilan hamkorlikda samarali harakat qilishi mumkinligini anglatadi”, deya ta’rif bergenlar.

Shaxs muloqot qilayotgan sheriklarining o‘z fikri, dunyoqarashi, g‘oyalarini to‘la-to‘kis ifodalashga psixologik sharoitlar yaratish, vositalarning boy, turli-tuman palitrasini tashkillash, adekvatlilikning barcha perseptiv, kommunikativ, interfaol qirralarini egallahsga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak”.

Shuningdek, har qanday soha mutaxassis faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan ma’naviy-axloqiy, kasbiy kompetensiya tamoyiliga ham rioya qilishi kerak. Talabalarning kasbiy kompetentliliqi bir qator o‘ziga xos tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular orasida samarali va foydali faoliyatni ta’minlashda kommunikativ kompetentlilik alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, ma’lum sohada kompetentli bo‘lgan mutaxassis, sohaga oid masalalarda o‘z harakatlarini samarali qo‘llash bilan asosli

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mulohaza yuritishi uchun mos ravishdagi kompetensiyalarni ham egallagan bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda professional kompetentlilik deganda, individual-psixologik struktura ham tushuniladi, u bilim, kasbiy tajriba va pedagogning psixologik tayyorligini o‘z ichiga oladi.

Muloqot yaxshi bo‘lishi uchun faqat grammatik qonuniyatlarni o‘rgatishning o‘zi yetarli emas, ko‘nikmaning barcha turlarini (eshitib tushinish, o‘qib tushunish, yozish, gapirish) qobiliyatini shakllantirish ham zarur. Buning uchun talabaning chet tilini bilish darajasiga mos keladigan leksik matnlar ham to‘gri tanlanadi.

Misol:

- Ich möchte bitte (einen Anzüge)
- Zeigen Sie mir bitte (Anzüge)
- Würden Sie mir bitte (Anzüge) zeigen?
- Waren Sie bitte so freundlich und würden Sie mir (Anzüge) zeigen

Hamma gaplar bir xil ma`noni ifodalaydi, lekin murakkablik darajasi har xil bo‘ladi. Oxirgi gap hatto o‘rtacha nemis tilida so‘zlashuvchini ham qiyab quyadi. Dars jarayonida bularga e`tibor berish kerak. Lingvistik tuzilmani talabaga aytganda, uni tushinishiga ham e`tibor beriladi.

Ushbu yondashuv har bir inson lingvistik tuzilmalarni mustaqil ravishda shakllantira olishidan ko‘ra ko‘proq tushunishini hisobga oladi. Aytilayotgan fikr so‘zlashuv tiliga mos darajada bo‘lsa tinglovchi fikrni tez tushinadi. Matnlar mazmuni talaba qiziqishiga qarab tanlanadi. Adabiyotga qiziquvchilar asta-sekin adabiy matnlar bilan tanishadilar. Chet elga sayohat qilishni xohlovchilar birinchi navbatda kommunikativ ko‘nikmalarga o‘rgatiladi. Lekin bu yerda biroz ehtiyyot bo‘lish talab etiladi. To‘rtta ko‘nikmani shakllantirishning bir qismi bilan to‘xtab qolmaslik kerak.

Til o‘rganish orqali o‘quvchilar chet el madaniyatiga ham tayyor bo‘lishlari eng muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshqa madaniyatda harakatlana olish nafaqat uning tilini tushunish, balki uning urf-odatlari va an`analarini ham bilishdir. Zamonaviy ijtimoiy va kasbiy sharoitlarda kompetentlilik muloqotini rivojlantirish uni uyg‘unlashtirishning qator prinsipial-muhim yo‘nalishlarini taqozo qilishi mumkin. Biroq amaliyot uchun “kommunikativ kompetentlilikni to‘laqonli rivojlantirish uchun muloqotning xizmatga oid-amaliy yoki rolli, shuningdek, boshqa shaxsiy turlarini cheklash muhim. Odatda, tafovut uchun asos sheriklar orasidagi psixologik masofa bo‘ladi, bu “men –sen-kontakt”. Modomiki, gap nafaqat “tashqi” ma’lumotlar, balki birgalikda hal qilinishi kerak bo‘lgan xizmatga oid namunali(tipovoy) vazifa haqida borar ekan shaxs sheri giga o‘zi, o‘z ichki dunyosini namoyon qiladi, bunda sherikka “yaqin inson” maqomini beradi,

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

muloqot esa tom ma'noda ishonchli bo'ladi". Shuningdek, muloqotdagi kompetentlilik, insondan turli uzoqlikdagi psixologik masofada o'ziga kerakli bo'lgan aloqani yaratishga tayyorlik va mahoratni talab qilishi mumkin. Ammo qiyinchiliklarning o'zi aynan "pozitsianing inersiya hodisasiga asoslangan – sherikning fe'l-atvori, tabiat hamda vaziyatning o'ziga xosligiga qaramay, ulardan birortasini egallaganligi va uni har joyda amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, muloqotdagi kompetentlilik, odatda, eng yaxshisi sifatida biror bir pozitsiyani egallaganligi bilan emas, balki ularning spektriga mos ravishda qo'shilishiga bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, talabalarning kommunikativ kommpetentligini rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Talabalar, avvalambor, qaror qabul qilishda muloqot qilish texnikasini o'zlashtirishi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Buning uchun maqsadli tashkil etilgan o'quv tizimini shakllantirish kerak. Kommunikativ kommpetentsiyani rivojlantirish bosqichlarini yaratib, oddiydan yuqori bosqichga erishish rejalshtiriladi. Til bilishning to'rt konikmasi bilan bog'liq bilimni talabalar o'zlashtirshlari uchun mavzular xilma-xilligi, talabaning bilim darajasi va qiziqishi inobatga olinadi. Talaba berilgan mavzuni ongsiz o'zlashtirishiga yo'll qo'ymasdan, uni erkin fikrlashga undash va muloqot qilishi uchun imkoniyat beriladi. Madaniyatlararo muloqotni rivojlanishi uchun tili o'rganilayotgan mamlakat xalqlarining urf-odatlari, bayram va an'anlarini bilshlari muhim. Yuqoridagi talablar amalga oshishi fan dasturi va darslikka ham bog`liq.

### **FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI:**

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish aspektlari Z. U. Musratova Nizomiy nomidagi TDPU magistri Toshkent 2021yil 24 noyabr
2. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. [www.eidoc.ru](http://www.eidoc.ru). 2005
3. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Methods and Conditions for the Innovative Formation of Motivation of Young Handball Players." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 13-22.
4. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Aspects of Forming Sports Motivation." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 23-30.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

1. 5.Ruzimatov, Islomjon. "THE SIGNIFICANCE OF METHODS DETERMINING THE DEVELOPMENT OF LEADING PHYSICAL QUALITIES IN ROADCASTS." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 4.05 (2023): 177-185.
5. Erkuzievich, Islomjon Rozmatov. "THE IMPORTANCE OF THE METHODS USED IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITY OF BEHAVIOR OF INVADING ATHLETES CARRYING OUT HARD WORK." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 325-330.
2. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.
3. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
4. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.
5. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.
6. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.
7. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.
8. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.
9. Муратова, Г. Р. "ИНОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

10. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
11. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.
12. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.
13. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
14. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
15. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
16. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
17. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
18. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.